

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.01.2020.PED.26.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SHAKADIROVA NIGORA IRGASHEVNA

**BLENDED LEARNING TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO‘LAJAK
INFORMATIKA O‘QITUVCHILARINING KASBIY
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent– 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Shakadirova Nigora Irgashevna

Blended learning texnologiyasi asosida bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....3

Шакадилова Нигора Иргашевна

Методика развития профессиональных компетенций будущих учителей информатики на основе технологии blended learning23

Shakadirova Nigora Irgashevna

Methodology for developing the professional competencies of future computer science teachers based on blended learning technology45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of publications.....49

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SHAKADIROVA NIGORA IRGASHEVNA

**BLENDED LEARNING TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO‘LAJAK
INFORMATIKA O‘QITUVCHILARINING KASBIY
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent– 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz) ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tdpu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Fayziyeva Maxbubaxon Raximjonovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Kayumova Nasiba Ashurovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Abdullayev Botir Baxtiyorovich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi DSc. 30.01.2020.Ped.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «___» _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy.) Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.N.Mamarajabova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

R.G.Isyanov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
p.f.n., dotsent

M.E.Mamarajabov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim muassasalarida raqamli ta'lim muhitini shakllantirish, masofaviy o'qitishni kengaytirish, sun'iy intellektning ta'lim jarayoniga integratsiyasi va ta'lim sifatini oshirish texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. YUNESKOning 2022-2025 yillarga mo'ljallangan "Ta'limda texnologik innovatsiyalar bo'yicha harakatlar strategiyasi"¹da ochiq ta'limiy resurslar raqamli ta'lim mazmuni va kurslarini loyihalash, ishlab chiqish hamda amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash; o'qituvchilar va ta'lim oluvchilarning raqamli kompetensiyalarini mustahkamlash uchun vositalar, asoslar, yo'riqnomalarni ishlab chiqish va texnologiyalardan uzoq muddatli ta'limda foydalanishni ta'minlash kabi vazifalar belgilangan bo'lib, ta'limni boshqarish tizimlarida raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish salohiyatini kuchaytirish, o'qitish hamda o'rganishni yaxshilash masalasiga alohida e'tibor berilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida blended learning texnologiyasini joriy etish, aralash ta'limning pedagogik modelini ishlab chiqish, uning didaktik imkoniyatlarini aniqlash hamda turli fanlar doirasida moslashtirilgan o'quv dasturlarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida blended learning texnologiyasidan foydalanish imkoniyatini oshirishda raqamli ta'lim resurslarini yaratish, LMS (Learning Management System) tizimlarini takomillashtirish, talabalarning individual o'rganish ehtiyojlariga moslashgan adaptiv ta'lim muhitlarini shakllantirish va aralash ta'lim samaradorligini empirik tahlil qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish, yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish, oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish"² ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu esa blended learning texnologiyasi asosida talabalarning, xususan bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan didaktik imkoniyatlarni aniqlashtirishni, raqamli ta'lim platformasining tarkibiy qismlari hamda dasturiy ta'minot mazmunini, shuningdek, uning didaktik modeli va metodikasini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida",

¹ UNESCO IITE releases its new Medium-Term Strategy for 2022-2025. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. Paris, France. 2021, November.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni

2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-sonli “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiyalash, masofaviy o‘qitish texnologiyalarini ishlab chiqish, elektron ta’lim vositalarini yaratish va ularni o‘quv jarayonida qo‘llash nazariyasi hamda metodikasi A.A.Abduqodirov, M.A.Aripov, U.Sh.Begimqulov, F.M.Zakirova, M.R.Fayziyeva, N.S.Xaytullayeva, U.Yu.Yuldashev, S.Q.Tursunov, R.R.Boqiyev, N.A.Kayumova, Sh.B.Bekchanova, A.G‘.Hayitov, N.I.Taylaqov, X.X.Muratovlar; bo‘lajak o‘qituvchilarning tayanch va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish muammolari N.A.Muslimov, D.I.Yunusova, M.E.Mamarajabov, N.N.Azizxo‘jayevalar, M.T.Axmedova; o‘qitishda blended learning texnologiyasini joriy etishning nazariy va amaliy asoslari L.G.Babaxodjayeva, N.N.Yusupova, G.A.Yusupova, M.R.Sobirova, Sh.Sh.Allamovalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida elektron ta’lim muhitini yaratish va uni ta’lim jarayoniga tatbiq qilish uslublari bo‘yicha M.I.Shkurko, V.V.Dovgan, V.S.Lisogorskiy; talabalar kompetentligini shakllantirish muammolari bo‘yicha L.V.Mardaxayev, M.P.Lankina, N.V.Golyayeva, A.G.Bermus, Ye.V.Bondarevskaya, I.A.Zimnyaya, V.V.Serikov, V.A.Slastenin, A.V.Xutorskoy va boshqalar; oliy ta’lim tizimida aralash ta’lim texnologiyasidan foydalanish muammolari bo‘yicha S.B.Veledinskaya, N.V.Lomonosova, Ye.V.Kostinalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Xorijda elektron va an’anaviy ta’lim integratsiyasi, blended learning tamoyillari va modellari D.R.Garrison, H.Kanuka, C.R.Graham, J.Marsh, E.Banados, J.F.Watson, N.D.Vaughan, K.Thornlar tomonidan tadqiq etilgan. Blended learning texnologiyasidan ta’lim jarayonida foydalanish muammolari bo‘yicha M.B.Horn, H.Staker, M.Driscoll, Jia Zhang, R.Huang, D.Ma, C.Twigg, M.Schenklar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining

“Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron ta‘lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish” nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 yy).

Tadqiqotning maqsadi blended learning texnologiyasi asosida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini blended learning texnologiyasi asosida rivojlantirishning dasturiy ta‘minoti mazmunini takomillashtirish;

blended learning texnologiyasiga asoslangan dasturiy ta‘minot vositasida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik modelini takomillashtirish;

blended learning texnologiyasiga asoslangan dasturiy ta‘minot vositasida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida blended learning texnologiyasi asosida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni olingan bo‘lib, tajriba-sinov ishlariga O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, Qo‘qon davlat universiteti, Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabalaridan 375 nafari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini blended learning texnologiyasi asosida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida sohaga doir ilmiy, ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish va tahlil etish, pedagogik kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma, test sinovi, tajriba-sinov, monitoring, matematik-statistik tahlil, natijalarni umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari “A La Carte model”, “Face to face Driver”, “Enriched Virtual model”, “Flipped classroom”, “Lab Rotation” blended learning texnologiyasi modellari integrativ yaxlitligini ta‘minlash, ta‘lim texnologiyalarining diversifikatsiyasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim, demokratik va sifatli oliy ta‘limga o‘tish kabi yangi tendensiyalarning ko‘rgazmalilik, amaliyotga yo‘naltirilganlik, uzluksizlik, faollik tamoyillari bilan uyg‘unligini ta‘minlash asosida aniqlashtirilgan;

blended learning texnologiyasi asosida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning dasturiy ta‘minoti videodarslar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, interfaol nazorat topshiriqlari (OnlineTestPad,

EclipseCrossword, wordwall, educaplay), laboratoriya ishlari hisobotini boshqaruvchi (GoogleForm) komponentlarini asinxron-funksional integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

blended learning texnologiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik modeli ta'limiy platforma yaratishga oid Dik va Keri, ALD, Kirkpatrick yondashuvlarni uzluksizlik va faollik tamoyillariga singdirish hamda blended learning modellariga transformatsiyalash, raqamli ta'lim platformasi mazmuni, metod va vositalarini aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

blended learning texnologiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi talabalarda fanlarni o'rganish jarayonida vizual ko'rish, eshitish va amalda bajarishga yo'naltirish, mustaqil izlanish, muammoni hal qilish yo'llarini mantiqiy tafakkur orqali aniqlashga qaratilgan VAK, Inquiry-Based Learning, Problem-Based Learning metodlarini kiritish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

pedagogika oliy ta'lim muassasalari "60110600-Matematika va informatika ta'lim yo'nalishi" talabalari uchun "Pedagogik dasturiy vositalar" nomli o'quv qo'llanma yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 2025-yil 30-yanvardagi 6/3.1-sonli qarori asosida berilgan 2025-65U-562-son nashr ruxsatnomasi);

bo'lajak informatika o'qituvchilarining metodik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan "Pedagogik dasturiy vositalar" nomli elektron kurs yaratilib, <https://blended-learning.coursify.me> ta'limiy platformasi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi guvohnomasi № DGU 49878 22.04.2025) pedagogik jarayoniga joriy etilgan;

Blended learning texnologiyasi asosida ta'limni samarali tashkil etishda "Talabalarining mustaqil ishlari, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining hisobotlarini elektron shaklda yig'ish va monitoring qilish" nomli (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi guvohnomasi № DGU 099822 13.01.2021) dastur ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, pedagogik ta'lim sohasidagi respublikamiz va xorijiy davlatlar olimlari, shuningdek, amaliyotchilarning ishlariga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanganligi, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor va sifat jihatidan ta'minlanganligi, bajarilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda blended learning texnologiyasining zaruriyati va ahamiyati

asoslanganligi, “Pedagogik dasturiy vositalar” kursining mazmuni asosida taklif etilgan blended learning texnologiyasi, “VAK”, Izlanishga asoslangan ta’lim (Inquiry-Based Learning), Muammoga asoslangan ta’lim (Problem-Based Learning) metodlari hamda “Pedagogik dasturiy vositalar” elektron o‘quv kursidan foydalangan holda talabalarda kasbiy kompetensiyani rivojlantirish va kelgusi pedagogik faoliyatlarida qo‘llashlariga zamin yaratishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “Pedagogik dasturiy vositalar” nomli o‘quv qo‘llanma, “Talabalarning mustaqil ishlari, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarining hisobotlarini elektron shaklda yig‘ish va monitoring qilish” nomli dastur ishlab chiqilgan, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga imkoniyat taqdim etuvchi, blended learning texnologiyasi asosida raqamli ta’lim platformasi va uning tarkibida “Pedagogik dasturiy vositalar” elektron o‘quv kursi didaktik ta’minotining yaratilganligi, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning pedagogik dasturiy vositalar yaratish va ulardan foydalanishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga hamda talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan interfaol dars mashg‘uloti ishlanmalari turli metodlar orqali takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Blended learning texnologiyasi asosida bo‘lajak informatika o‘qituvchilari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari “A La Carte model”, “Face to face Driver”, “Enriched Virtual model”, “Flipped classroom”, “Lab Rotation” blended learning texnologiyasi modellari integrativ yaxlitligini ta’minlash, ta’lim texnologiyalarining diversifikatsiyasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, demokratik va sifatli oliy ta’limga o‘tish kabi yangi tendensiyalarning ko‘rgazmalilik, amaliyotga yo‘naltirilganlik, uzluksizlik, faollik tamoyillari bilan uyg‘unligini ta’minlash asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalar “Pedagogik dasturiy vositalar” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 8-maydagi 11-05-2957/04 raqamli ma’lumotnomasi). Natijada mutaxassislik fani hisoblangan pedagogik dasturiy vositalar fanini o‘qitishning metodik tizimi takomillashtirilib, o‘qitish samaradorligini oshishiga erishilgan;

blended learning texnologiyasi asosida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning dasturiy ta’minoti videodarslar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, interfaol nazorat topshiriqlari (OnlineTestPad, EclipseCrossword, wordwall, educaplay), laboratoriya ishlari hisobotini boshqaruvchi (GoogleForm) komponentlarini asinxron-funksional integratsiyalash asosida takomillashtirishga oid takliflar “Pedagogik dasturiy vositalar” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 8-maydagi 11-05-2957/04 raqamli ma’lumotnomasi). Natijada ta’limni boshqarish tizimlaridan samarali foydalanishning metodik imkoniyatlari kengaytirilgan hamda raqamli ta’lim platformasi tarkibi takomillashtirilgan;

blended learning texnologiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik modeli ta'limiy platforma yaratishga oid Dik va Keri, ALD, Kirkpatrick yondashuvlarni uzluksizlik va faollik tamoyillariga singdirish hamda blended learning modellariga transformatsiyalash, raqamli ta'lim platformasi mazmuni metod va vositalarini aniqlashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Pedagogik dasturiy vositalar" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 8-maydagi 11-05-2957/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada blended learning texnologiyasi asosida talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi takomillashtirilib, ta'lim sifati oshgan;

blended learning texnologiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi talabalarda fanlarni o'rganish jarayonida vizual ko'rish, eshitish va amalda bajarishga yo'naltirish, mustaqil izlanish, muammoni hal qilish yo'llarini mantiqiy tafakkur orqali aniqlashga qaratilgan VAK, Inquiry-Based Learning, Problem-Based Learning metodlarini kiritish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Pedagogik dasturiy vositalar" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 8-maydagi 11-05-2957/04 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada pedagogik dasturiy vositalarga oid bilim va kompetensiyalarni kasbiy sohada qo'llanilish samaradorligini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika konferensiyasida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shulardan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 128 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti hamda predmeti aniqlangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi. e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari" deb nomlangan birinchi

bobida bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini blended learning texnologiyasi asosida rivojlantirishning pedagogik muammolari, bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda blended learning texnologiyasining imkoniyatlari yoritib berilgan.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalarning bugungi rivojlanish darajasi ta'lim tizimining innovatsion jarayonlarga intilishi bilan birgalikda pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonini o'zgartirish va talabalarning o'z ustlarida muntazam ishlashlari zarurligini taqozo etmoqda. Ayniqsa, bo'lajak informatika fani o'qituvchilari boshqa yo'nalishdagi talabalarga nisbatan ko'proq mustaqil ishlashlari zarur. Zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamli texnologiyalar soat sayin rivojlanib, takomillashib bormoqda hamda yangidan yangi dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Bu yangiliklarni o'z vaqtida o'zlashtira olmaslik kelgusi pedagogik faoliyatda o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababli, bo'lajak informatika fani o'qituvchilarini tayyorlashda turli zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, talabalarning mustaqil ishlashlarini ta'minlash bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot ishida kasbiy, pedagogik, metodik kompetensiya va ularning xususiyatlari, blended learning texnologiyasi va uning modellari ilmiy adabiyotlarni o'rganish orqali tahlil qilindi, blended learning texnologiyasi va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalalari bo'yicha xorij, MDH, respublika olimlari ishlari o'rganib chiqildi. Tahlillar jarayonida blended learning tushunchasiga ko'plab olimlar tomonidan turlicha ta'riflar berilgani aniqlandi. Jumladan, Clayton Christensen Instituti "blended learning — yuqori texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishdan farq qiladi. Blended learning o'qituvchi – ta'lim oluvchi ishtirokida an'anaviy (yuzma-yuz) o'qitish bilan onlayn ta'lim birlashuvi bo'lib, bunda talaba tomonidan o'rganish yo'li, vaqti, joyi va tezligi bo'yicha o'zini o'zi boshqarish elementlari hisobga olinadi, shuningdek, o'qituvchining ta'lim berish tajribasi va onlayn ta'lim integratsiyasi hamdir" deb ta'rif bergan. D.R.Garrison va H.Kanuka blended learningni – "sindagi an'anaviy ta'limni onlayn ta'lim tajribasi bilan o'ylangan integratsiyasi" sifatida ta'riflaydi. J.Marshning fikriga ko'ra, "blended learning" mustaqil ta'lim, o'qituvchi rahbarligida, masofaviy va an'anaviy ta'limning eng yaxshi jihatlari olib, qulay narxdagi geografik va ta'lim uslublari hamda darajalari bo'yicha eng katta auditoriyani qamrab oladigan texnologiya vositasida o'qitishning fazoviy-vaqt moslashuvchanligini o'z ichiga oladi. E.Banados "blended learning — muayyan vazifalar uchun o'zgarib turadigan texnologiyalar va auditoriya ishlarining birgalikdagi kombinatsiyasi. Ushbu yondashuv kompyuter yordamida bilimlarni taqdim etish, o'qitish va ta'lim mezonlarining afzalliklarini tan oladi, ammo natijalarni yaxshilaydigan yoki xarajatlarni kamaytiradigan to'liq, muvozanatli dastur yaratish uchun boshqa vositalardan ham foydalanish mumkin" deb ta'rif bergan. U keltirgan ta'rif ko'proq oliy ta'lim tizimiga taalluqli ekanligini ko'rishimiz mumkin. L.G.Babaxodjayeva "Aralash ta'lim — an'anaviy kunduzgi, masofaviy va mustaqil ta'limni birlashtiruvchi o'qitish tizimi bo'lib, u o'qituvchilar, ta'lim

oluvchilar va axborotning interfaol manbalarining o‘zaro ta’sirlashishini qamrab oladi, doimo o‘zaro aloqada bo‘lgan va bir butunlikni tashkil etgan o‘quv jarayoniga xos barcha komponentlar (o‘qitishning maqsadi, mazmuni, metodlari, tashkiliy shakllari, vositalari)ni aks ettiradi”, deb ta’rif keltirgan.

Yuqorida keltirilgan mulohazalarga tayangan holda, tadqiqot ishida “Blended learning – bu an’anaviy va elektron ta’limning aniq ta’limiy maqsadga erishish uchun o‘zaro bog‘liqlikda qo‘llaniladigan va talabani mustaqil ishlashga yo‘naltiradigan integratsiyasi”, kabi mualliflik ta’rifi keltirildi.

Tadqiqot jarayonida YUNESKO, Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlarning ta’lim muassasalarida blended learning texnologiyasini qo‘llashga doir xalqaro darajadagi dasturlari va loyihalari o‘rganildi. Shu bilan birga, AQSH, Xitoy, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiya kabi davlatlarning maktablari va oliy ta’lim tizimida blended learning texnologiyasidan foydalanish bo‘yicha amaliy tajribalari tahlil qilindi. Jumladan, respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonida blended learning texnologiyasidan foydalanish bo‘yicha xususiy metodlarni taklif etish, blended learning texnologiyasi asosida ta’lim olishga imkon beruvchi raqamli ta’lim kursini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy ishlarga ehtiyoj mavjudligi aniqlandi.

Tadqiqot ishida aniqlandiki, pedagogika ta’limini modernizatsiya qilish sharoitida o‘qituvchilarni tayyorlashga qo‘yiladigan zamonaviy talablar kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida belgilanadi va o‘qituvchi shaxsining umummadaniy, kasbiy va ijtimoiy-axloqiy rivojlanishining birligi orqali namoyon bo‘ladi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning maqsadi ta’lim sifatini yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, bu yondashuv doirasida ikkita asosiy tushuncha ajratiladi: kompetensiya va kompetentlik, ularning birinchisi obyektlar va jarayonlarning ma’lum doirasiga nisbatan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan shaxsiy fazilatlar to‘plamini o‘z ichiga oladi, ikkinchisi esa egalik qilish bilan bog‘liq, tegishli vakolatga ega bo‘lgan shaxs tomonidan, shu jumladan uning faoliyat subyektiga shaxsiy munosabatini ifodalaydi.

Tadqiqot davomida kompetensiyaviy yondashuv talabaning ijtimoiy, kommunikativ, axborot, kasbiy va boshqa shaxsiy sifatlarini shakllantirishga yo‘naltirilganligi, zamonaviy ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlarni o‘zida deyarli to‘liq amalga oshirish imkonini berishi, talaba shaxsini to‘liq tarbiyalash va muhim amaliy vazifalarni hal qilish imkoniyatini shakllantirish kabi kompetensiyalar tizimiga xizmat qilishi hamda quyidagi vazifalarni amalga oshirish imkonini berishi aniqlandi: talabalarning maqsadlari bilan pedagoglarga qo‘yilgan ta’lim maqsadini muvofiqlashtirish; o‘qishda talabalarning mas’uliyatli va mustaqilligini sekin-asta oshirish hisobiga o‘qituvchining mehnatini yengillashtirish; talabalar ishini ta’lim mazmunini mexanik qisqartirish hisobiga emas, balki individual mustaqil ta’lim ulushini oshirish hisobiga yengillatish; o‘quv va tarbiyaviy jarayonlar birligini nazariyada emas, balki amaliyotda ta’minlash; talabalarni ongli va mas’uliyatli ta’limga tayyorlash.

Tadqiqot jarayonida pedagogik kadrlarni tayyorlashda, ular professional faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshira olishlari uchun eng muhim omil metodik kompetensiya ekanligi aniqlandi hamda uning mohiyati yoritib berildi. Metodik

kompetensiyaga berilgan ta'rif va mulohazalar tahlil qilinib, metodik kompetensiya – bu o'qitilayotgan va unga yaqin fanlar bo'yicha bilimga ega bo'lish, o'quv jarayonida metodlarni bilish va ulardan samarali foydalanish qobiliyati, pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'nikmalari, shaxsiy qadriyatlar hamda me'yorlarda namoyon bo'luvchi shaxsning o'zaro bog'langan xususiyatlar majmuasi, deb ta'rif berildi.

Tadqiqot ishida metodik kompetensiya tizimining 4 ta darajasi aniqlandi: metodik bilimga ega bo'lish – standart vaziyatlarda namoyon bo'ladigan tabiiy va metodik tayyorgarlik jarayonida shakllangan shaxsiy fazilat va ko'nikmalar; metodik layoqat – qabul qilingan standart va normalarga asosan kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyor bo'lish; metodik ijodkorlik – nostandart vaziyatlarda noodatiy uslubda kasbiy vazifalarni hal etish qobiliyati; metodik san'at – kompetentlikning oliy ko'rinishi. Bu yillar davomida orttirilgan chuqur bilim, ko'nikmalar, katta tajriba va kreativlikni talab qiladi.

Tadqiqot davomida blended learning texnologiyasining bugungi kunda qo'llanilib kelinayotgan modellari tahlil qilindi. Xorij va respublikamiz olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlarida asosan 4 ta va 6 ta model yoritilgan bo'lib, bular: auditoriya mashg'ulotlari (Face to face); almashtirish (Rotation); moslashuvchan (Flex); onlayn laboratoriya (Online Lab); mustaqil ta'lim (Self-Blend); onlayn ta'lim (Online Driver). Kristensen Instituti ma'lumotlariga ko'ra 4 ta asosiy model mavjud: Rotation, Flex, A La Carte va Enriched Virtual. Rotation modeli to'rtta kichik modelni o'z ichiga oladi: Station Rotation, Lab Rotation, Flipped classroom va Individual Rotation. Olib borilgan izlanishlar natijasida hozirgi kunda blended learning texnologiyasining 40 dan ortiq modellari mavjudligi aniqlandi va ulardan o'ndan ortiq turi tadqiqot ishida batafsil yoritib berildi. Tahlillarga ko'ra, mamlakatimiz ta'lim tizimida qo'llash samarali natija berishi mumkin bo'lgan modellar ko'rsatib berildi. Bular: Rotation model; Flipped classroom modeli; A La Carte model; Project-Based Blended Learning (Loyihaga asoslangan aralash ta'lim); Supplemental Blended Learning (Qo'shimcha aralash ta'lim).

Tadqiqot jarayonida aralash ta'lim tizimida elementlar majmui sifatida yagona, dinamik o'zaro ta'sir ta'lim jarayonining vazifasini bajarishida uchta asosiy (institutsional, pedagogik va boshqaruv-texnologik) jihatlar yetakchi o'rinlarni egallashi aniqlandi (1-jadvalga qarang).

Tadqiqot davomida blended learning tushunchasiga berilgan ta'riflar mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda blended learning tamoyillari (prinsiplari) sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: ko'rgazmalilik – talaba doimiy ravishda qo'llashi mumkin bo'lgan zamonaviy elektron ta'lim vositalari yordamida bilimlar omborini yaratishi mumkin, blended learning texnologiyasi yordamida o'quv materiallaridan, videodarslardan, kitob va simulyatorlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar; amaliyotga yo'naltirilganlik – nazariyani to'liq o'zlashtirish uchun amaliy mashg'ulotlarning zarurligi; uzluksizlik – o'quv materiallari o'quv portalida doimiy saqlanib turganligi sababli talabalar istalgan vaqtda kirib, mavzuning biror-bir qismini qayta o'rganishlari mumkin; faollik – talabalar o'qituvchi bilan muloqot

qilish yoki savollarga javob olish uchun keyingi yuzma-yuz darslarni kutib o'tirishlari shart emas, o'quv portalida muloqotni amalga oshirish imkoni mavjud.

1-jadval

Talabalar uchun aralash ta'lim elementlarining xususiyatlari

Aralash ta'limning aspektlari	Aralash ta'limning elementlari
Institutsional – ta'lim tashkilotida aralash ta'limni yaratish uchun zarur shart-sharoitlarning mavjudligi, xususan, elektron ta'lim resurslaridan foydalanishga qaratilgan strategiya	– aralash ta'lim infratuzilmasini resurslar bilan ta'minlash; – talabalarga kirish va akademik xizmatlar nuqtayi nazaridan elektron o'zaro aloqa tizimlarini boshqarish masalalarini hal qilish; – elektron ta'lim resurslaridan foydalangan holda aralash ta'lim jarayonini tartibga soluvchi tashqi va ichki me'yoriy hujjatlar va mahalliy hujjatlar mavjudligi.
Aralash ta'lim shaklidagi elektron ta'lim resurslari uchun zarur bo'lgan o'quv jarayonini boshqaruv - texnologik va texnik - uslubiy moslashtirish.	– aralash ta'lim jarayonini, o'qituvchilar, talabalar va ma'muriyatning sinxron va asinxron o'zaro ta'sirini amalga oshirish imkonini beruvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining texnologik vositalari; – aralash ta'lim jarayonini boshqarish, ta'lim jarayonini dasturiy-texnik ta'minoti, tashkiliy, uslubiy va ma'muriy ta'minlash xizmatlari.
Pedagogik – o'quv jarayonini o'qituvchilarning talabalar bilan o'zaro munosabati uchun kommunikativ faoliyat sifatida amalga oshirish.	– aralash ta'limning pedagogik modellarini qo'llash; – aralash ta'limning universitet miqyosida, fanlararo va intizomli usullarini joriy etish; – mazmuni, jumladan, uslubiy, didaktik va dinamik resurslarni ishlab chiqish.

Tadqiqot ishida zamonaviy ta'lim jarayonida blended learning texnologiyasini qo'llash obyektiv hamda kommunikativ sohalarda ijobiy natijalarga erishishga yordam berishi aniqlandi. Bunday ta'lim nafaqat kasbiy mahorat darajasini oshirishga, balki talabalarining mavjud axborot ta'lim resurslaridan foydalanishga, o'qituvchi bilan sifatli hamkorlik qilishga, birgalikdagi faoliyat hamda muloqotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, blended learning texnologiyasi modellaridan samarali foydalanish bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tahlillarga ko'ra, blended learning texnologiyasi bo'yicha respublikamizda bir qator ishlar olib borilgan bo'lsa-da, tadqiqotchi olimlar tomonidan asosan blended learning texnologiyasining mazmun-mohiyati, undan masofaviy ta'limda, xorijiy tillarni o'qitishda foydalanish masalalariga e'tibor berilgan, biroq bo'lajak

informatika o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida blended learning texnologiyasidan foydalanish bo'yicha yetarlicha ilmiy ishlar qilinmaganligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Blended learning texnologiyasi asosida bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning blended learning texnologiyasiga asoslangan dasturiy vositalari, blended learning texnologiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik modeli, blended learning texnologiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi yoritib berilgan.


Tadqiqot jarayonida blended learning texnologiyasini ta'limda qo'llash uchun LMS (Learning Management Systems – Ta'limni boshqarish tizimlari)dan foydalanishning ahamiyati o'rganildi. Bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda blended learning texnologiyasidan foydalanish uchun mutaxassislik fani hisoblangan “Pedagogik dasturiy vositalar” fanidan o'quv kursi LMSdan foydalanib tashkil etish taklif etilib, TalentLMS, 360 Learning, Adobe Learning Manager, iSpring Learn, Moodle, Schoology Learning, CYPHER Learning, Coursify ta'limni boshqarish tizimlarining imkoniyatlari, kamchiliklari, asosiy jihatlari va foydalanishdagi to'siqlar bo'yicha qiyosiy tahlil olib borildi hamda tahlil natijalariga ko'ra, Coursify muhiti tanlab olindi. O'quv kursini yaratishda pedagogik dizayn tamoyillari tahlil qilinib, elektron o'quv kursi uchun kontentlar pedagogik dizaynning Dik va Keri (Dick and Carey), ALD va Kirkpatrick modellari yordamida shakllantirildi.

Tadqiqot ishida pedagogik faoliyatda pedagogik dasturiy vositalardan foydalana olish va ular yordamida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy materiallarni tayyorlash hamda ulardan ta'lim jarayonida foydalanishni o'rganish zarurligi, pedagogika oliy ta'lim muassasalarining “60110600-Matematika va informatika” bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarini bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi asosiy fanlardan biri hisoblangan “Pedagogik dasturiy vositalar” fanining yuqori kurslarda 7- va 8-semestrlar davomida o'qitilishi blended learning texnologiyasi asosida bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda, bu fanning o'qitish jarayonini tanlashga asos bo'ldi.

Blended learning texnologiyasi asosida raqamli ta'lim platformasini yaratishda quyidagi jihatlarga e'tiborga olindi: interaktivlik va dizayn – video, matnli tasvirlar, animatsiyalar va boshqa zamonaviy vositalar kabi keng imkoniyatlarning mavjudligi; so'rovlar, viktorinalar va boshqalar interfaol elementlarni qo'shish; baholash turlari – talabalarning ilmiy va umumiy faoliyatini baholash uchun turli shakldagi interaktiv testlardan foydalanish; ma'lumotlarga asoslangan hisobotlar – talabalarning zaif va kuchli tomonlarini aniqlashda ularning faoliyatlari monitoringini olib borish; oson integratsiya – turli dasturlar bilan aloqa, SCORM formatini qo'llab-quvvatlash; foydalanish soddaligi – ma'lumotlarni oson topish, qulay interfeys.


Blended learning texnologiyasi asosida takomillashtiriladigan ta'lim platformasi bilan ishlash tashkiliy-texnologik jarayon va pedagogik-texnologik jarayonlardan iborat bo'lib, ta'lim platformasi uchun kontent ishlab chiqish, ta'lim platformasiga kontentni joylashtirish bosqichlari tashkiliy-texnologik jarayon; ta'lim platformasidan ta'lim jarayonida foydalanish bosqichi pedagogik-texnologik jarayonda amalga oshiriladi.

Raqamli ta'lim platformasi va uning tarkibidagi elektron o'quv kursi bir qancha qismlardan tarkib topgan bo'lib, pedagogik, psixologik, ergonomik talablarga javob berishi hamda talabalarga to'laqonli bilim olishlari uchun imkoniyat beradi (1-rasmga qarang):



1-rasm. "Pedagogik dasturiy vositalar" elektron o'quv kursi tarkibiy tuzilmasi

Tadqiqot davomida, interfaol nazorat topshiriqlari (OnlineTestPad, Eclipse Crossword, Wordwall, Educaplay), laboratoriya ishi va hisobotini boshqaruvchi (GoogleForm) komponentlari integratsiya qilingan, taqdimotlar, video darslar, amaliy va laboratoriya topshiriqlari hamda nazorat testlaridan tarkib topgan, blended learning texnologiyasiga asoslangan ta'limiy platforma va o'quv kursi asosida bo'lajak informatika o'qituvchilari tayyorgarligini takomillashtirish modeli ishlab chiqildi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Blended learning texnologiyasiga asoslangan dasturiy ta‘minot vositasida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli

Dissertatsiya ishida “Pedagogik dasturiy vositalar” fanidan ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini olib borish texnologik xaritasi, qo‘llanilgan shakl, usul, vosita hamda raqamli ta’lim platformasi orqali o‘qitish metodikasi yoritib berildi. Ta’lim platformasi yordamida ma’ruza mashg‘ulotlarni blended learning texnologiyasining “A La Carte model”, “Face to face Driver”, “Flipped classroom” modellaridan, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini “Enriched Virtual model”, “Lab Rotation” modellari hamda “VAK”, Problem-based learning, Inquiry-based learning metodidan foydalanib tashkil etish ijobiy natija ko‘rsatdi.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uning samaradorligini aniqlash metodikasi”** deb nomlangan uchinchi bobida blended learning texnologiyasi asosida bo‘lajak Informatika o‘qituvchilari kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish metodikasiga doir tajriba-sinov ishlari mazmuni, natijalari va tahlili yoritib berilgan.

Tajriba-sinov maydonlari sifatida O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, Qo‘qon davlat universiteti, Shahrisabz davlat pedagogika institutining “60110600-Matematika va informatika” ta’lim yo‘nalishi talabalari tanlab olindi. Tajribada jami 375 nafar talaba, jumladan, nazorat guruhi uchun 186 nafar, tajriba guruhi uchun 189 nafar 4- kurs talabalari qatnashdi.

Tajriba-sinov ishlari aniqlash bosqichi (2021 – 2022 yillar), ta’kidlash bosqichi (2022-2023 yillar), tasdiqlovchi bosqich (2023-2024 yillar)larda amalga oshirildi.

